

Date: 9<sup>th</sup> April-2026

## BIZNESNING JAMIYATGA TA'SIRI

**Xalilxodjayeva Shaxnoza Gafurovna**

Biznes asoslari fani o'qituvchisi

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi va rivojlanishi aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida aholi real umumiy daromadlari o'sish sur'ati, ishsizlar soni va yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni o'rtasidagi bog'liqlik (ko'p o'zgaruvchili dispersiya tahlili) yordamida tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari ishsizlikni kamaytirishda sezilarli ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiyotda bandlikni oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Biroq, tadbirkorlikning aholi daromadlari o'sish sur'atiga ta'siri nisbatan past bo'lib, daromadlarni oshirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligi qayd etilgan. Maqolada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Ushbu ish kichik biznesning rivojlanishi va davlat siyosatining ahamiyatini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** Kichik tadbirkorlik subyektlari, Iqtisodiy barqarorlik, Real daromadlar o'sish sur'ati, tahlili, Ishsizlik darajasi.

### **Kirish**

Aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda tadbirkorlikni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Tadbirkorlik nafaqat yangi ish o'rinlari yaratadi, balki aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirish uchun ham zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'zbekiston so'nggi yillarda bu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishdi, yangi kichik tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi va ish o'rinlarining ko'payishi mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

2025-yilda O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlar joriy etildi. Ushbu dasturlar aholini doimiy daromad manbai bilan ta'minlash va bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, yangi kichik biznes subyektlarining ko'payishi real daromadlar o'sishi bilan uyg'unlashib, aholi turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilashga imkon bermoqda.

Mamlakatda yangi tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ularga qulay sharoit yaratish orqali iqtisodiyotda barqaror o'sish sur'atlariga erishilmoqda. Bu, o'z navbatida, aholini kambag'allikdan chiqarish va ular uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada tadbirkorlik rivoji, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish bo'yicha O'zbekiston tajribasi va imkoniyatlari tahlil qilinadi.

### **Adabiyotlar sharhi**



Date: 9<sup>th</sup> April-2026



Ushbu tadqiqot iqtisodiy o'sishning asosiy omillarini, jumladan, kapital, mehnat va texnologiyaning ta'sirini tahlil qiladi. Solow modeliga ko'ra, kapital sarmoyalari va texnologik innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarining ko'payishi va yangi texnologiyalarni joriy qilish aynan shu nazariyaga mos keladi[1]. Schumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy dvigateli sifatida ko'rib chiqadi. Uning fikriga ko'ra, innovatsiyalar va tadbirkorlik tashabbuslari yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning poydevoridir[2]. World Bank Group "Doing Business Report" hisoboti dunyo mamlakatlarida tadbirkorlik muhiti va uning rivojlanish imkoniyatlari haqida ma'lumot beradi. O'zbekiston ushbu indeksda yuqori natijaga erishish uchun qonunchilikni soddalashtirish va biznes muhitini yaxshilash bo'yicha qator islohotlar olib bordi[3]. Kichik va o'rta korxonalar (SME) kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynashi mumkinligi qayd etiladi[4]. Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida iqtisodiy o'sish, bandlik va farovonlikni oshirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston SDG'ga mos ravishda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda[5].

### **Tadqiqot natijalari**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi aholi farovonligini oshirishda va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining oshishi, ishsizlik darajasini sezilarli darajada kamaytirib, bandlikni oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu natijalar kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini kuchaytirishning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining aholi daromadlari o'sish sur'atlariga ta'siri ancha past bo'lib, daromadlarning o'sishini ta'minlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi. Bu ta'sirni oshirish uchun iqtisodiyotda texnologik modernizatsiya, ta'lim tizimini rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini yanada qulaylashtirish muhim omil bo'lib qoladi.

Tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiruvchi muhim omil sifatida jamiyat va alohida shaxslar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biznes va ishbilarmonlik yondashuvi orqali nafaqat alohida shaxslar, balki butun jamiyat ham farovon hayot sari o'z harakatlarini tezlashtirishi mumkin. Shaxslar va jamiyatning maqsadlarini aniqlash va ularga erishish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar, inson va jamiyatning yetukligi hamda mas'uliyatligining muhim ko'rsatkichidir.

Jamiyatdagi iqtisodiy hayotda odamlar turli maqsadlar qo'yadilar, jumladan, to'liq hajmli ishlab chiqarish, barqaror o'sish, ishchi kuchining samaradorligini oshirish, tanlov erkinligini ta'minlash va kasbiy faoliyatni tanlash imkoniyatlari. To'liq hajmli ishlab chiqarish – bu iqtisodiy hayotda eng asosiy maqsadlardan biri bo'lib, mavjud ishlab chiqarish resurslaridan – mehnat, kapital va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Har bir jamiyatda 100 % bandlikni kutish imkonsiz bo'lsa-da, doimiy ishsizlik darajasi taxminan 2–5 % atrofida bo'lishi tabiiy holat hisoblanadi. Shu bilan birga, millionlab odamlar o'z mehnat qobiliyatini ishlata olmay, ishsizlar qatnashiga kirs,

Date: 9<sup>th</sup> April-2026

bu davlatning farovonligiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun, to'liq bandlik va yuqori samarali ishlab chiqarish – iqtisodiyotning eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Barqaror o'sish – iqtisodiy rivojlanishning ikkinchi muhim yo'nalishi hisoblanadi. Davlat va jamiyat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yildan-yilga oshirishni maqsad qilgan holda, milliy ishlab chiqarish hajmini kuzatadi. Shu maqsadda yalpi milliy mahsulot (YMM) o'sish sur'atlari diqqat bilan tahlil qilinadi. Ideal iqtisodiy o'sish – bu aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YMMning doimiy ko'payishi, ish faoliyati pasaymasligi, narxlarning tez o'smasligi va ishsizlik darajasining barqaror qolishi bilan tavsiflanadi. Biz yiliga 4–5 % iqtisodiy o'sish sur'atiga erishish orqali ishlab chiqarish va bandlikni yuqori darajada ushlab turishni maqsad qilamiz.

Ishlab chiqarish hajmi va bandlik bilan bir qatorda iqtisodiy maqsadlar orasida tanlov erkinligi muhim o'rin tutadi. Tanlov erkinligi – har bir shaxs va iste'molchining o'z ehtiyojlari va istaklariga asoslanib keng ko'lamdagi mahsulot va xizmatlarni tanlash imkoniyatidir. Iqtisodiy tizim iste'molchiga cheklovlarsiz tanlov imkonini berishi kerak; masalan, faqat o'rta o'lchamdagi qora rangli mahsulotni sotib olishga majbur qilish sharoiti iste'molchining erkinligini cheklaydi va samarali tanlovni cheklaydi.

Shuningdek, kasbiy faoliyatni tanlash erkinligi – iqtisodiy rivojlanish va shaxsiy farovonlik uchun muhim element hisoblanadi. Har bir shaxs o'z qiziqishlari, bilim va malakasiga mos ish yoki tadbirkorlik faoliyatini tanlashi, shuningdek, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi lozim. Bu nafaqat individual daromadni oshiradi, balki iqtisodiy samaradorlik va jamiyatning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

**Xulosa:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shaxslar va jamiyat faoliyati tadbirkorlik yondashuvi orqali tezlashtiriladi va farovonlik darajasi oshadi. To'liq hajmli ishlab chiqarish, barqaror o'sish, tanlov erkinligi va kasbiy faoliyatni tanlash imkoniyatlari iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadlari sifatida ajralib turadi.

Shaxslar va jamiyatning maqsadlariga erishishda mehnat samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish muhim omillar sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy siyosat va xususiy sektor hamkorligi, shuningdek innovatsion tadbirkorlik loyihalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] Solow, R. M. (1956). "A Contribution to the Theory of Economic Growth"
- [2] Schumpeter, J. A. (1934). "The Theory of Economic Development"
- [3] World Bank Group (2020). "Doing Business Report"
- [4] Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2005). "SMEs, Growth, and Poverty"
- [5] United Nations Development Programme (UNDP) (2021). "Sustainable Development Goals (SDGs)"
- [6] Abdusalim Shavkatov, Khalilov.A. Forecasting GDP Per Capita (Current Prices) As A Result Of Inflationary Effects In Case Of Uzbekistan.



Date: 9<sup>th</sup> April-2026

[7] A Dilafuz, A Shavkatov. Davlat korxonalarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish strategiyalari.



**International Conferences**  
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

